

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM SOHASIDA SO`NGI YILLARDA
AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR MAZMUNI.

Qodirov M.M

Farg`ona davlat univeristeti tayanch doktoranti

Karimova M.N

Ziyayeva G.A

Uchko`prik tumani

2-sonli K.H.M.tarix fani katta o`qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada siz so`ngi yillarda davlatimiz tomonidan ta'lif sohasida olib borilayotgann o`zgarishlar, islohotlar hamda ta'lif oluvchilar uchun yaratib berilayotgan imtiyozlar haqida ma'lumot olishingiz mumkin.

Kalit so`zlar: ta'lif, umumiyl o`rta ta'lif, "Ta'lif to`g`risida"gi qonun, bakalavr, magistratura, ta'lif krediti.

Bugungi zamonaviy dunyoda har bir davlatning kuch-qudratini oshirib boruvchi eng kuchli manba bu uning ta'lif tizimidir. Shuni hisobga olgan holda bugungi kunda mustaqil O`zbekistonimizda ham ta'lif sohasi davlat siyosati darajasiga ko`tarildi. Bunga misol sifatida so`ngi yillarda ta'lif tizimida amalga oshirilgan islohotlarni misol sifatida keltira olamiz.

O`zbekiston Respublikasida ta'lif tizimi bir nechta bosqichlarni o`z ichiga qamrab oladi. Masalan, 2020-yilning 23-sentabrida qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta'lif to`g`risida"gi qonunning 7-modda quyidagi ta'lif turlari ta'kidlab o`tilgan:

- maktabgacha ta'lif va tarbiya;
- umumiyl o`rta va o`rta-maxsus ta'lif;
- professional ta'lif;
- oliy ta'lif;
- oliy ta'lifdan keyingi ta'lif;
- kadrlarni tayyorlash va ularni malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta'lif.

Ta'lif turlarini tahlil qiladigan bo`lsak, maktabgacha ta'lif tizimi 6-7 yoshgacha bo`lgan bolalarni qamrab oladi. Bunda asosan bolalar bog`chalar ta'lif olishadi hamda tarbiyachilar tomonidan ularni maktab ta'limga tayyorlash vazifasini bajarib berishadi. Bugungi vaqtida islohotlar natijasida bolalarni maktabgacha ta'lif muassasalariga qamrab olish darajasi 28 foizdan 54 foizgacha oshdi. So`ngi yillarda bog`chalarning umumiyl soni 3 barobarga oshdi, birgina so`ngi to`rt yilda 223 mingdan ortiq o`ringa ega bo`lgan 7400 ta xususiy bog`cha tashkil etildi.

Undan keyingi bosqich esa umumiyl o`rta va o`rta-maxsus ta'lif hisoblanadi. 2017-yil ushbu bosqich uchun tub islohotlar yili bo`ldi. Chunki aynan shu yildan

boshlab maktablarimiz yana 11 yillik ta'lim tizimiga qaytdi. Bu esa o`quvchilar uchun yanada katta imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Zamonaviy dunyoda eng ko`p e'tibor umumiy o`rta ta'lim muassalariga qaratilayotganligi bejiz emas, aynan shu bosqich ularni kelajakdagi kasb tanlashlashlari uchun hal qiluvchi vazifani o`tab beradi. Lekin buning uchun o`quvchilarining dunyoqarashi, fikrlashi, bilim doirasi bvilan bir qatorda ularning psixologik holatlari ham rivojlanishi kerakdir. Shularnin inobatga olgan holda prezidentizmi tashabbuslari bilan har bir sinflar uchun mo`ljallangan maktab darsliklari qayta ko`rib chiqilmoqda, yangi darsliklarni ishslash jarayonlari jadallik bilan olib borilmoqda. Yangi darsliklarni yaratishda jahoning eng rivojlangan davlatlarining ta'lim tizimidagi ijobiy jihatlari o`rganilib, moslashtirilmoqda. Bunday davlat sirasiga, ta'lim tizimini butun dunyo tan oluvchi Finlandiya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi davlatlarni kiritishimiz mumkin. Bundan tashqari UNICEF, UNESCO tashkilotlari bilan yangi darsliklar tayyorlashda hamkorlik izchil yo`lga qo`yilganligini e'tirof etish mumkin.

Davlatimiz tomonidan yuqoridagi barcha ta'lim bosqichlarini har tomonlama rivojlantirish bilan bir qatorda ularda ta'lim olayotgan qatlamlarga g`amxo'rlik ham qilib borilmoqda. Misol uchun, 2021-yilda Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Umumiy o`rta, o`rta maxsus ta'lim muassasalari va kasb-hunar maktablari bitiruvchilarining baholarini oliy ta'lim tashkilotiga kirish imtihonlarida inobatga olish tartibi to`g`risida" qaror loyihasi ishlab chiqilgan edi. Qarorga ko`ra o`quvchilarining so`ngi 6 yillikda olgan baholarining o`rtacha ko`rsatkichi oliy ta'lim muassalariga kirish imtihonlarida ularning to`plagan ballariga qo`shib berilishi nazarda tutilgan edi. Ushbu o`zgartirish 2023/2024 – o`quv yili imtihonlarida qo'llanishi belgilab qo`yilgan.

Oliy ta'lim tizimimiz ikki qismidan iborat bo`lib, ular:

- a) bakalavr;
- b) magistratura.

Bakalavr bosqichi o`quv yo`nalishiga qarab 3 yoki 4 yildan, tibbiyot sohalarida esa 5 yoki 6 yildan iboratdir. Bakalavr bosqichiga talabalar davlat granti yoki to`lov shartnoma asosida davlat kirish imtihonlarining natijasiga ko`ra qabul qilinadi. Shuningdek, bakalavr bosqichi kunduzgi, sirtqi, kechki va masofaviy tarzda olib borilishi mumkin.

Yurtimizda aholining kam ta'minlangan qismini qo'llab quvvatlash maqsadida ularning ta'lim olishlari uchun bir qator yengilliklar yaratib berilmoqda. Ularga namuna sifatida bugungi kunda mamlakatimizda jismoniy jihatlar imkoniyati cheklangan nogironlar uchun umumiy kvotadan 2 foizlik, ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin qizlar uchun 4 foizlik, mehribonlik uylari bitiruvchilari bo`lgan chin yetimlarga va bolalar shaharchasi tarbiyalanuvchilariga 1 foizlik kvota ajratilgan. Yuqorida ta'kidlangan qo`sishma kvotalarning barchasi qo`sishma kvota doirasida tanlovda qatnashish imkonini beradi.

Bundan tashqari xotin-qizlarning ta'lim sohasida faolligini ta'minlash maqsadida "Zulfiya" mukofoti sohibalari, "Nihol" musiqa festivali, "Tarbiyachi", "Hamshira" tanlovlari g'olibalariga ham qo'shimcha ravishda davlat granti asosida oliy ta'lim muassasasi talabasi bo'lish baxtiga tuyassar bo'ladilar.

Magistratura bosqichi esa ko`plab yo`nalishlarda 2 yildan iborat. Ushbu bosqichda xotin-qizlarning faolligini oshirish, ularni ijtimoiy himoya qilish maqsadida so`ngi yillardan boshlab, ularning to`lov shartnoma pullari davlatimiz tomonidan qoplab berilmoqda. Bu esa ularga katta imkoniyatlar yaratib, bor kuchlarini ilm olishga sarflashlariga olib kelmoqda.

Oliy ta'lim har bakalvr bosqichi to`lov shartnomalari uchun ham xotin-qizlar uchun yengilliklar yaratilgan bo`lib, ularga banklar tomonidan 0 foizlik miqdorda ta'lim kreditlari ajratib berilmoqda.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, ta'lim tizimimizda amalga oshirilayotgan islohotlar yaqin yillar ichida o'z mevasini bera boshlaydi va bu bizni yangi marralarga yetaklashda zabardast kuch vazifasini o'tab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. "Ta'lim tog`risida"gi O`zbekiston Respublikasi qonuni. 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. "Umumiy o`rta, o`rta maxsus ta'lim muassasalari va kasb-hunar maktablari bitiruvchilarining baholarini oliy ta'lim tashkilotiga kirish imtihonlarida inobatga olish tartibi to`g`risida" qaror. <https://regulation.gov.uz/uz/d/28636>
3. A.Zamonov va boshqalar. O`zbekiston tarixi . Toshkent. 2018 yil
4. Zilola G`aybullayeva. O`qishga kirishda kimda qanday imtiyoz bor. <https://oliygoh.uz/post/kimda-qanday-imtiyoz-bor>
5. Sobitxon Turg'unov. Yangi O`zbekiston:Yangicha ta'lim tizimi va yangicha yondashuvlar. <https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekiston-yangicha-talim-tizimi-va-yangicha-yondashuvlar>